

SAVOD O'RGATISH JARAYONIDA SAVOL-JAVOB USULINING MURAKKABLIK DINAMIKASI

ДИНАМИКА СЛОЖНОСТИ МЕТОДА «ВОПРОС-ОТВЕТ» В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ГРАМОТНОСТИ

COMPLEXITY DYNAMICS OF THE QUESTION-ANSWER METHOD IN THE PROCESS OF LITERACY TEACHING

Abdimurat
Namozov¹

1.2.3. - O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand O'zbekiston

Annotatsiya. Maqolada savol-javob usulini savod o'rgatish jarayonida qo'llash bo'yicha mazmunan yangicha yondashuv va uning tahliliy tafsilotlari bayon qilingan. Shuningdek, harflarni yozishda ularning unsurlarini bilish, har bir unurning nomlanishi, qo'llanilishidagi ketma-ketlikka amal qilish haqida nazariy tushunchalar misollar bilan dalillangan.

Kalit so'zlar. Harf, katta harf, kichik harf, harf unsurlari, imlo, grafik shakl, savol-javob usuli, harf birikmasi, ilmoqcha.

Аннотация. В статье описан новый подход к применению метода вопросов и ответов в процессе обучения грамоте и его аналитические детали. Также, на примерах подтверждаются теоретические положения о знании своих элементов, названии каждого элемента и соблюдении последовательности в их использовании при написании буквы.

Ключевые слова. Буква, прописная буква, строчная буквы, элементы буквы, орфография, графическая форма, метод вопросов и ответов, буквосочетание, крючок.

Annotation. The article describes a new approach to the use of the question and answer method in the process of teaching literacy and its analytical details. Moreover, examples confirm theoretical principles about knowing its elements, the name of each element and maintaining consistency in their use when writing letters.

Key words. Letter, uppercase letter, lowercase letter, letter elements, spelling, graphic form, question and answer method, letter combination, hook.

Savod chiqarish darslarida harf shakllarini o'rgatish jarayoni juda mas'uliyatli davr hisoblanib, o'qituvchilar o'z tajriba va malakalariga tayangan holda bu bosqichning yozuv ko'nikmasini shakllantirishdagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratadilar. Maqsad - imkon qadar qisqa fursatda o'quvchilarga nazariy ma'lumotlarni amaliy ishlar orqali taqdim qilish, o'quvchilarning jarayondagi faolligini kuchaytirish, harflarni to'g'ri yozish hamda ularni tashkil etgan unsurlar miqdorini anglatishdir. Buning uchun o'qituvchi ushbu arayon bilan aloqador, shu paytgacha ta'lim tizimida qo'llanib kelingan usullarga tanqidiy va tahliliy yondashadi. Natijador ayrim usullarni yanada boyitish, isloh qilish yo'lidan boradi. O'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni bosqichma-bosqich nazorat qilishni ham unutmaydi. O'qituvchi o'quvchilarni harf shakllari bilan to'liq tanishtirib, o'rgatib bo'lgandan so'ng, ularda hosil qilingan bilim va ko'nikmalarning qay darajada ekanligini aniqlash maqsadida bir qancha usullardan foydalanib sinab ko'rishi, kamchiliklarni tahlil qilib berishi, grafik shakllarning yozilishiga amal qilgan o'quvchilarni rag'batlantirishi, baholashi, ayrim yozolmagan o'quvchilar bilan alohida

Abdimurat
Namozov,
O'zbekiston-
Finlandiya
pedagogika
instituti dotsenti.

ishlashi kerak bo'ladi. Bunda har bir qilingan amaliy harakat o'quvchining chiroyli yozuv egasi bo'lishiga qaratilishi, bunga erishgan o'quvchilar yozuvining xunuklashuviga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish kerak.

Biz ham boshlang'ich ta'lim tizimida bo'layotgan o'zgarishlarning guvohi, ishtirokchisi sifatida kuzatuvlarimizning hosilasiga tahliliy yondashishni ma'qul ko'rdik. Gap shundaki, o'qituvchi harflarni o'rgatib bo'lgandan so'ng o'quvchilarda hosil bo'lgan bilimlarni har xil usulda sinovdan o'tkazadi. Biz bu o'rinda **Savol-javob usuli** imkoniyatlari haqida to'xtalmoqchimiz. Avvalo, bu usulning shunchaki savolga javob berish tarzida bo'lmasligini ta'kidlamoqchimiz. Bu usulning mohiyati shundaki, u grafik shakllarni tahlil qilishga asoslanadi: harfni tashkil qilgan unsurlar miqdori va ularni qo'llashdagi tartib, uzviy ketma-ketlik, qo'llashdagi me'yorlar, qo'l harakatini uzmasdan yozish shular jumlasidandir. Yana bir jihati savolga og'zaki emas, faqat yozib ko'rsatish orqali javob qaytariladi. Savollar oddiylikdan murakkablikka qarab o'quvchilarga taqdim etiladi. O'quvchini mantiqiy fikrlashga o'rgatish masalasi ham e'tiborda bo'ladi. Demak, bu usul orqali o'quvchi shuuriga hujum qilinadi hamda tegishli natijaga erishiladi. "Harflarni unsurlarga ajratib tahlil qilish, uning necha unsurdan tuzilganligini, har bir unsur qanday shaklga ega ekanligini, bu unsurlar boshqa harflar bilan bog'lanishda qanday ko'rinishga ega ekanligini o'quvchilar tasavvur etadilar" [1. 44-45-betlar], - deb yozadi professor M.G'ulomov.

Endi **Savol-javob usulini** qo'llashda foydalanish mumkin bo'lgan savollar hamda ularga berilishi mumkin bo'lgan tahliliy javoblar bilan tanishsak.

- **Shunday harf yozing, u kichik va katta shaklda yozilganda unsurlar miqdori bir xil bo'lsin?**

O'quvchi bu savolga asosli javob berish maqsadida harflarning yozilishi bo'yicha hosil bo'lgan o'zidagi ko'nikmalarga tayanib, harf shakllarini havoda "chizadi", unsurlarga ajratadi. **Unsur** - harfni tashkil etgan qismlar. Javob topish jarayonida o'quvchi o'qituvchi tomonidan harf taqdim qilinmagani uchun ko'proq izlanadi, harflar olamiga "sayohat qiladi". Faraz qilaylik, o'quvchi bu harfni topdi: **M, m**. Endi ana shu topgan harfni unsurlarga ajratib, ularni nomlab, ko'rsatib bersagina, savolga asosli dalili bilan javob qaytargan bo'ladi. Katta **M** uch unsurdan tashkil topib, ularning nomlanishi quyidagicha bo'ladi: **chap tomoni ilmoqchali uzun tayoqcha hamda hamda o'ng tomoni ilmoqchali ikkita uzun tayoqcha**. Kichik **m** harfi unsurlarining nomi: **to'g'ri kichik tayoqcha, usti ilmoqchali kichik tayoqcha, usti va osti ilmoqchali kichik tayoqcha**.

Ayni paytda o'quvchi bu harfning ishtirokidagi so'zni grafik qoidalarga asoslangan holda yozib, o'z javobiga ilova qilishi uning savolga mukammal javob berganini anglatadi: **Malika, malak**.

O'qituvchi bu savolga o'quvchining bergan javobini tahlil qilar ekan, undagi bilim yetarli ekanidan quvonadi. O'qituvchi yuqoridagi savolning aksini so'rasam, o'quvchi bunga ham javob bera olarmikin, degan mulohazaga boradi va ularga yuzlanadi:

- **Shunday harf yozing, u kichik va katta shaklda yozilganda unsurlar miqdori bir xil bo'lmasin?**

O'quvchi bu savolga javob topishda harf shakllaridan namunalarni daftariga yozadi, ularni unsurlarga ajratadi, nihoyat, o'zining xulosasiga tayanib, savolga javob bo'luvchi harf shaklini yozadi va uni unsurlarga ajratib ko'rsatadi: **K, k; A, a**.

Havola qilingan harf shakllari quyidagi unsurlardan iborat: **katta K ikki unsurdan, kichik k esa uch unsurdan iborat. Katta A bir unsurdan, kichik a ikki unsurdan tashkil topgan.**

O'qituvchi dars davomida savollarning bir xil qolipda bo'lishidan qochib, endi savollarni o'quvchilarga boshqacha ko'rinishda havola qiladi:

- Uch unsurdan iborat kichik harflar guruhiga qaysi harflar kiradi?

O'quvchi endi o'ylash doirasiga hamma harflarni "kiritmaydi", chunki unda o'qituvchi tomonidan o'rgatilgan, yozib ko'rsatilgan ma'lumot bor. Shunga asoslanib o'quvchi bir necha harf shakllarini daftariga yozadi va unsurlarga ajratishga harakat qiladi. Masalan, o'quvchi **sh** va **ch** harflarini savolga javob tariqasida taqdim qiladi. O'quvchi ushbu harflarning shakli va unsurlarga ajratilishini to'g'ri ko'rsatib bergandan so'ng ularning so'zda turli o'rinlarda kelishini misollarda dalillaydi: **shosh, choy, tinch** kabi. Bu o'rinda o'quvchi harf unsurlarining shaklidan tashqari ularning qanday atalishini yozib qo'yishi mumkin. Masalan, **sh harf birikmasidagi birinchi harf s unsurga ajratilmaydi, h esa ikki unsurdan iborat bo'lib, yuqorisi ilmoqchali uzun tayoqcha va usti hamda osti ilmoqchali kichik tayoqcha tarzida.** Agar o'quvchi bu harflarda ishtirok etgan unsurlarning boshqa harflarda ham uchrashini qo'shimcha ma'lumot sifatida taqdim eta olsa, misollar havola qila olsa, harf unsurlari bo'yicha yetarli bilimga ega ekanligini namoyon qiladi.

Savol-javob usulida mashg'ulotni davom ettirar ekan, o'qituvchi endi savolning berilish tartibiga o'zgartirish kiritadi, uni jumboq shaklida bayon etib, o'quvchni chuqurroq o'ylashga da'vat qiladi:

- Chap tomoni ilmoqchali uzun tayoqcha hamda o'ng tomoni ilmoqchali ikkita uzun tayoqcha ishtirokida hosil bo'ladigan harf shaklini yozing?

O'quvchi bu savolga javob izlashda birinchi navbatda jumboqning mohiyatini mulohaza qilib ko'radi. Savol shartidagi unsurlarni daftariga yozadi va ularni ketma-ketlik asosida birlashtirib, katta **M** harfi degan to'xtamga keladi. Katta **M** harfining so'z boshida kelishiga oid misollarni grafik qoidalarga rioya qilgan holda yozib ko'rsatadi.

Mashg'ulotda soddalikdan murakkablikka qarab intilgan o'qituvchi o'quvchilarga beriladigan savolni biroz qiyinlashtiradi:

- To'rt unsurdan iborat kichik harflar guruhiga misol keltiring?

O'quvchi bu savol ustida bosh qotirib, **ng** harf birikmasi ekanligini topadi hamda uni unsurlarga ajratadi, ketma-ketlik asosida sanaydi: **n ikki unsurdan iborat (kichik to'g'ri tayoqcha, osti va usti ilmoqchali kichik tayoqcha), g ikki unsurdan iborat (oval shaklidagi unsur va pasti tugunchali unsur).**

O'quvchi unsurlarning to'g'ri nomlanishini bayon qilgandan so'ng ushbu harf birikmasi ishtirokida hosil bo'lgan so'zlarga misol keltiradi. Bunda o'qituvchi o'quvchi tomonidan yozilgan misollarda haqiqatan ham **ng** harf birikmasi ishtirok etgan yoki etmaganligiga e'tibor qaratadi. Ko'zdan kechirish jarayonida harf birikmasi tarkibidagi shakllarning nutqimizda alohida-alohida tovush va harf sifatida qo'llanilishi ham

o'qituvchining diqqat markazida bo'ladi. Chunki aynan shu holat bilan bog'liq tarzda talaffuzda xato o'qishlar kuzatiladi. Solishtiramiz: **singil** – menga. Bu juftlikning birinchi so'zida **ng** bir tovushni, ikkinchi so'zida ikki tovushni ifodalamoqda. Juftlikning ikkala so'zida ham beshta tovush mavjud, biroq harflar miqdori teng emas. **Singil** so'zida oltita harf bo'lib, besh tovushni ifodalagan. **Dengiz, ko'ngil** singari so'zlarda ham harf birikmasi mavjud, ularda ham harf miqdori tovush sonidan ziyod.

O'quvchi harfning necha unsuridan tashkil topganini, uning yozilish shaklini o'rganishi, bilishi zarur. Bu nafaqat boshlang'ich ta'limda, balki ta'limning keyingi bosqichlarida ham esdan chiqmaydigan ma'lumot sifatida xotirada muhrlanishi kerak. Ayni paytda o'quvchi unsurlarga bo'linmaydigan, yaxlit holda yoziladigan harf shakllarining ham mavjudligini yoddan chiqarmasligi lozim. Ularning tarkibidan sun'iy ravishda harf unsurini qidirmaslik, o'zicha "yasamaslik" kerak. Bunday harflar kichik va katta harflar guruhida uchraydi. Ana shu harflar haqidagi bilimlarni mustahkamlash, o'quvchilarning xotirasini sinovdan o'tkazish maqsadida o'qituvchi:

- **Unsurlarga ajratilmaydigan katta va kichik harflar guruhiga kiradigan harflarni yozib ko'rsating**, - mazmunidagi savolini ularga berishi hamda bu harflar ustidagi ish jarayonini kuzatishi, tahlil qilishi, xatolarni ko'rsatib berishi zarur. Xatolarni tahlil qilishda o'qituvchi xattaxtdan foydalanib, harf shaklini yozib ko'rsatishi hamda shu yozilgan harf shakli ustidan o'quvchining qo'lini yurgizdirib, mashq qildirishi mumkin. Bu jarayonda o'qituvchi va o'quvchi foydalanadigan bo'rlar har xil rangda bo'lsa, harf imlosi qayerdan boshlanib, qayerda tugallansa - o'quvchi ana shunga e'tiborini qaratsa. Namunalar keltiramiz:

H, N, D, A - katta harflar guruhi.

v, s, b, l, e - kichik harflar guruhi.

Mashg'ulotni savol-javob tarzida tashkil etish Ona tili o'qitish metodikasi fanidagi harf unsurlarini "sanoq-ohang usuli" da tushuntirish bilan hamohang. "Sanoq-ohang usulining afzalligi shundaki, birinchidan, u harflarning tekis yozilishini ta'minlaydi va harf unsurlarining tushib qolishiga yo'l qo'ymaydi, ikkinchidan, sekin yozadigan o'quvchilarni tez va sinfdagi barcha o'quvchilar bilan barobar yozishga undaydi, uchinchi, o'quvchilarga harakatlarni aniq va dadil bajarishni o'rgatadi, to'rtinchidan, sinfdan darsni jonlantirishga yordam beradi" [1. 48-bet], - deb ta'kidlaydi professor M.G'ulomov.

Haqiqatan ham an'anaviy ta'lim jarayonida nisbatan ko'p qo'llanadigan savol-javob usulidan zamonaviy ta'lim tizimida hech qachon voz kechib bo'lmaydi. Shunday ekan, bu usulni mazmunan boyitish, boshqa usullar bilan uyg'unlashuvini ta'minlash hozirgi kun ta'lim berish jarayonida muhim masaladir. Biz ham o'z tajriba va kuzatishlarimizga tayanib, mazkur usulning mundarijasini boyitish bo'yicha tavsiyalarimizni havola qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. M. Gulomov, K. Tursinova, D. Po'latova. Chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish. – T.: "Turon-iqbol", 2013.
2. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari. T.: O'qituvchi, 1995.